

BOJXONA XIZMATI ORQALI DAVLAT MOLIIYASINI BOSHQARISH VA TARTIBGA SOLISH

Razzaqberdiyev Aslbek Axatjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Annotatsiya. Davlat moliyasining eng asosiy bo'g'ini davlat budjeti hisoblanadi. Shuningdek, davlat budjetining eng asosiy qismi mahalliy budjetlar tashkil qiladi. Chunki, mamlakatimiz hududlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda mahalliy budjetlarning o'rni va ahamiyati katta. Mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirish amaliyotida turli manbalardan foydalanilsada, ularning birlamchi daromad manbai hisoblangan mahalliy soliqlarning ahamiyatini oshirish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Kalit so'zlar. bojxona, boj, tarif, yashil yo'lak, tekshiruv, import, eksport, davlat moliya, tovarlar, ekvivalent tovar

MANAGEMENT AND REGULATION OF PUBLIC FINANCE THROUGH THE CUSTOMS SERVICE

Razzaqberdiyev Aslbek Axatjon Ugli

Student of Tashkent State University of Economics

Abstract. The state budget is the main link of state finances. Also, the most important part of the state budget is made up of local budgets. Because local budgets have a great role and importance in ensuring the social and economic development of the regions of our country. While various sources are used in the practice of formation of local budget revenues, increasing the importance of local taxes, which are considered as their primary source of income, today is gaining actual importance.

Keywords: Customs, duty, tariff, green lane, inspection, import, export, state finance, goods, equivalent goods

Kirish.

Mustaqillik yillari O'zbekistonda jahon hamjamiyatida mamlakatimiz nufuzini yuqori darajaga ko'tarilishiga imkoniyat yaratgan, o'suvchan taraqqiyoti, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga, huquqiy demokratik davlat qurishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Davom etayotgan global moliyaviy-iqtisodiy inqirozning salbiy ta'siriga, jahon iqtisodiyotining o'sish sur'atlarini sekinlashganiga hamda jahonning ko'plab mamlakatlarida stagnatsiya va retsessiya jarayonlari chuqurlashganiga qaramay, O'zbekistonda 2022-2026 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor

vazifalari aniq maqsadlarga yo'naltirilgan tizimli amalga oshirilishi natijasida iqtisodiyotni va uning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirishning barqaror yuqori sur'atlariga erishildi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ham mahalliy budjetlar daromad bazalarini mustahkamlash borasida “Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat budjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo'lishini ta'minlash – eng muhim ustuvor vazifamizdir” deya alohida ta'kidladilar.¹ Manbaasi qani .

Shuningdek yurtboshimiz hududlardagi muammolarga to'xtalib, “Hududlarni, ayniqsa, qoloq shahar va tumanlarni kompleks rivojlantirishga doir eng muhim ustuvor vazifani amalga oshirish zaruratidan kelib chiqildi. Agar hududlarning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichlarini solishtirsak, ular kun va tunde bir-biridan farq qiladi.”² degan fikrni ta'kidlab o'tdilar. Manbaa?

Demak, iqtisodiyotning o'sishi va jamiyatning ijtimoiy farovonligini ta'minlashdagi asosiy manba – bu davlat moliyasining tarkibiy qismi hisoblangan mahalliy budjet mablag'lari hisoblanadi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi shu jihatdan ham dolzarbdir. O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, 1991-yil 24 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi tuzildi. Tashqi iqtisodiy faoliyatini, Bojxona ishini tartibga soluvchi qonunlar, me'yoriy hujjatlar qabul qilindi, ular xalqaro huquq me'yorlari bilan uyg'unlashtirildi. 1997-yil 8-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan Respublikasi Bojxona xizmatiga huquqni himoya qilish organi maqomi berildi. 1997- yil 29 avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning 9 sessiyasida O'zbekiston Respublikasining “ Boj tarifi tog'risidagi “ Davlat bojxona xizmati tog'risidagi Qonunlari, 1997-yil 26 dekabrda O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi qabul qilindi. Qoraqalpog'iston Respublikasida, barcha viloyatlarda va Toshkent shahrida bojxona xizmati boshqarmalari, qo'shni davlatlar bilan chegara hududlaridagi magistral yo'llarda shu boshqarmalarga qarashli Bojxona postlari faoliyat ko'rsatadi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi bojxona kodeksiga ham alohida urg'u berib ketamiz.


¹ o'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi. 2023-yil

² Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: “o'zbekiston” NMIU, 2017. – 31-bet

Tahlil va natijalar.

Bojxona hududida qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normasi, agar ushbu normalar belgilangan tartibda tasdiqlanmagan bo'lsa, tovarni qayta ishlash amalga oshiriladigan haqiqiy sharoitlardan kelib chiqqan holda, vakolatli shaxs tomonidan aniqlanadi va tasdiqlanadi, shuningdek tovarni bojxona hududida qayta ishlash ruxsatnomasi berilayotganda bojxona organi tomonidan belgilanadi. Qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normasi belgilanayotganda bojxona organlari vakolatli shaxs taqdim etgan qayta ishlashning texnologik jarayoni to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan hujjatlarga hamda qayta ishlashning aniq texnologik jarayoniga asoslanadi.

1-rasm. O'zbekiston Respublikasi Bojxona Faoliyatining asosiy ta'moyillari³



Ekvivalent kompensatsiyaga, ya'ni bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan, olib kirilgan tovardan olinadigan qayta ishlash mahsulotini ekvivalent tovarni qayta ishlash orqali olingan boshqa tovar bilan, shu jumladan O'zbekiston tovari bilan almashtirishga, agar tovarni bojxona hududida qayta ishlash operatsiyasi ta'mirlashdan iborat bo'lsa, tovarni bojxona hududida qayta ishlash ruxsatnomasi asosida, shuningdek boshqa hollarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoni, PF-57-son 2025 yil 25-mart.

Mahkamasining qarori asosida yo‘l qo‘yiladi. Ekvivalent tovar, bojxona maqsadlari uchun, olib kirilgan tovar maqomini oladi, u bilan almashtiriladigan olib kirilgan tovar esa, ekvivalent tovar ega bo‘lgan maqomni oladi.

Agar tovarni bojxona hududida qayta ishlash uchun berilgan ruxsatnomada ekvivalent kompensatsiya ko‘zda tutilgan bo‘lsa, bojxona hududida qayta ishlash uchun tovar olib kirilguniga qadar qayta ishlash mahsulotlarini chiqarishga ruxsat - beriladi. Bojxona tizimi iqtisodiy hafsizlikni taminlash, fiskal siyosatini amalga oshirish, tashqi savdoni nazorat qilish va xalqaro integratsiyani jadallashtirishda muhim rol egallaydi, chunki barcha eksport va import tovarlari aynan davlat bojxona organlari nazorati ostida rasmiylashtirilib, yalpi tekshiruvdan o‘tadi. Shu bois eksport va import tarkibi, uning dinamikasi taxliliga e‘tibor qaratsak.

1-jadval.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdo tarkibi⁴

(yillar kesimida, %da)

Eksport					Tarkibi	Import				
2016	2018	2020	2022	2024		2016	2018	2020	2022	2024
27,5	19,1	12,1	5,2	3,4	Paxta tolasi	-	-	-	-	-
5,4	3,8	9,7	5,7	6,3	Oziq-ovqat mahsulotlari	12,3	7,0	10,5	11,9	9,8
2,9	5,3	5,1	6,9	6,3	Kimyo mahsulotlari va ulardan tayyorlanadigan buyumlar	13,6	13,6	13,8	17,5	16,5
10,3	11,5	22,8	14,1	14,2	Energiya manbalari va neft mahsulotlari	3,8	2,5	7,1	4,8	5,7
6,6	9,2	6,9	5,8	6,6	Qora va rangli metallar	8,6	10,3	8,1	7,6	9,8
3,4	8,4	5,5	1,8	2,5	Mashina va asbob-uskunalar	35,4	43,3	44,0	41,4	38,9
13,7	12,2	10,2	26,3	25,1	Xizmatlar	8,5	10,4	5,3	6,6	7,5
30,2	30,5	27,7	34,2	35,6	Boshqalar	17,8	12,9	11,2	10,2	11,8

Respublikada eksport tarkibida o‘tgan davrlarda asosiy ulushni paxta tolasi tashkil etgan bo‘lsa, so‘nggi yillarda uning dinamikasida pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Keyingi davrlar bo‘yicha energiya manbalari va neft mahsulotlari, xizmatlar, kimyo mahsulotlari va ulardan tayyorlanadigan buyumlar xajmi keskin ortganligini aloxida qayd etish lozim. Import xajmida asosiy ulush mashina va asbob uskunalar kimyo mahsulotlari va tayyorlanadigan buyumlar, oziq ovqat mahsulotlari qatoriga tog‘ri kelmoqda.

⁴ Muallif tomonidan bojxona qo‘mitasi malumotlari asosida tayyorlandi

Mamlakat ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi va budget daromadlarini shakllantirishda bojxona organlari muhim rol o'ynaydi. Bojxona tizimi aksariyat tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlariga bojxona rasmiylashtiruviga oid qator xizmatlarni ko'rsatadi, bojxona to'lovlarini undiradi. Biroq taxlil natijalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlari tarkibidagi bojxona yig'imlarini ulushida so'nggi 3 yil ichida pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda.

2-jadval.

O'zbekiston Respublikasi byudjet daromad-larining miqdori⁵

Yill ar	Jami byudjet darom ad-larinin g miqdor i, mlrd.so 'm	Jami bilvosita soliqlar		Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS)		Aksiz solig'i		Bojxona yig'implari	
		miqdor i, mlrd.so 'm	jami byudje t darom ad-laridag i ulushi, %da	miqdor i, mlrd.so 'm	jami byudje t darom ad-laridag i ulushi, %da	miqdor i, mlrd.so 'm	jami byudje t darom ad-laridag i ulushi, %da	miqdor i, mlrd.so 'm	jami byudje t darom ad-laridag i ulushi, %da
2015	6145	2915,5	47,45	1721,7	59,05	773,9	26,54	168,8	5,79
2016	8760,8	4123,3	47,07	2505,5	60,76	1123,3	27,24	317,6	7,7
2017	10840,2	5438,3	50,17	3085	56,73	1794,5	33	334,2	6,15
2018	13596,7	6858,5	50,44	3900,2	56,87	2219,4	32,36	430,3	6,27
2019	17061,3	8225	48,21	4761,4	57,89	2541,8	30,9	516,3	6,28
2020	21295,7	10434,5	49	5966,6	57,18	3175,9	30,44	759,7	7,28
2021	26223	13398,6	51,09	7552,5	56,37	4168,3	31,11	1007,4	7,52
2022	31730,5	16852,3	53,11	9476,1	56,23	4941,1	29,32	1350	8,01
2023	36493,3	19193,8	52,6	10851	56,53	5618,4	29,27	1481,5	7,72
2024	41043,5	21130,7	51,48	11891,6	56,28	6258,2	29,62	1449,5	6,86

Davlat budjeti daromadlari tarkibida, bilvosita soliqlarning ulushi 2023 yilda 2019 yildagiga nisbatan 48.21 foiz dan 52,6 foiz ga oshgan yoki 4foiz dan ortiqroq o'sishga erishilgan. Bilvosita soliqlar tarkibidan eng katta ulush QQS hisobiga to'g'ri kelmoqda. Biroq uning ulushi 2023 yilda 2015 yildagiga nisbatan 59,05 foiz dan 56,53 foiz ga pasaygan yoki 2,85 foiz ga kamayishi kuzatilgan.

⁵ Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida Razzoqberdiyev Aslbek Axatjon og'li tomonidan tayyorlandi tomonidan tayyorlandi.

Budjet daromadlarining keyingi muhim manbasi aktsiz solig'i hisobiga to'g'ri kelmoqda. Ya'ni, 2017 yilda 2015 yilga nisbatan 26.5foiz dan 33 foiz ga ko'tarilib, qariyb 6.5 foiz o'sgan bo'lsa-da, normativ-huquqiy asoslarga ko'ra, keyingi yillarda aktsiz solig'i stavkalari pasaytirilgan.

Bojxona yig'implari budjet daromadlaridagi ulushi 2018 yilga nisbatan, 2023 yil yakunigacha 6.27 foiz dan 7.72 foiz gacha ko'tarilgan yoki qariyb 1.5foiz ga o'sishiga erishilgan. Biroq keyingi yillarda amaldagi normativ-huquqiy asoslarga ko'ra bojxona yig'implari stavkalari pasaytirilgan.

Xulosa.

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi bojxona tizimining davlat moliyasini boshqarishdagi o'rni, mavjud imkoniyatlari, raqamli transformatsiya yo'nalishlari va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari chuqur tahlil qilindi. Quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. Bojxona xizmati davlat moliyasining asosiy fiskal instrumentlaridan biridir. U nafaqat byudjetga tushumlar jalb qilish, balki mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.
2. Bojxona tizimi orqali undiriladigan soliq va to'lovlar byudjetga barqaror tushum manbai hisoblanadi, shu bois uni samarali boshqarish davlat moliyaviy barqarorligining kafolatidir.
3. Raqamlashtirish va avtomatlashtirish orqali bojxona tartibotlari soddalasmoqda, bu esa tashqi savdo ishtirokchilari uchun qulay muhit yaratadi va iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi.
4. Xalqaro standartlarga moslash jarayoni davom etmoqda, biroq ba'zi texnik, tashkiliy va kadrlar bilan bog'liq muammolar uning to'laqonli joriy etilishiga to'sqinlik qilmoqda.
5. Bojxona kadrlarining salohiyati va axloqiy sifati tizimning muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi omildir. Hozirgi bosqichda bu sohada doimiy o'quv va malaka oshirish ishlarini tizimlashtirish zarur.
6. Bojxona xavfsizlik tizimi doimiy tahdidlar ostida bo'lib, kontrabanda, noqonuniy savdo, giyohvand moddalar aylanishi kabi xavflar zamonaviy texnologiyalar bilan yengilmasdan, faqat an'anaviy choralar bilan kurashilsa, samaradorlik bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi bosh konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel
2. O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi, 2013-yil 26 dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2022.
4. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2018.

5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizning mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.-Toshkent.:”o'zbekiston” NMIU,2017
7. Abdurahmonov I. “Davlat moliyasi”. – Toshkent: “IQTISODIYOT”
8. Karimov X., Tursunov B. “Soliq va bojxona siyosati”. – Toshkent: “Ilm Ziya”, 2021.
9. Ismoilov A., Normurodov M. “Bojxona ishi asoslari”. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2023
10. Norqulov N. “Tashqi iqtisodiy faoliyat va bojxona tartibga solinishi”. – Toshkent, 2020.
11. Годин А.М, Подпорина И.В. Бюджет и бюджетная система Российской Федерации.-М.: Дашков,2008.-386с.
12. Бабич А.М., Павлова Л.Н. Государственные и муниципальные финансы. –М.: ЮНИТИ, 2012-423 с.